

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

5/2022



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



5/2022

## MUNDARIJA

<b>EXACT AND NATURAL SCIENCES</b>		
<b>Khujayev L.Kh.</b>	Nonlinear inverse problems for the system of poroelasticity equations	3
<b>Raxmatova N.J.</b>	Analysis of the 1D fractional diffusion equation with initial-boundary problem	16
<b>Hasanov I. G.</b>	Structural changes in agriculture: problems of modernization and ways of solvation	22
<b>LINGUISTICS</b>		
<b>Юлдашева Д.Н.</b>	Ўзбек тилининг софлигини сақлашга масъулмиз	27
<b>Irgasheva F.B.</b>	Lingvokulturologiyaning tarixiy bosqichlari va ijtimoiy-madaniy o'ziga xosliklari	31
<b>Norova M.F.</b>	Phonopragmatic characteristics of apocope	35
<b>Ruzieva M. Kh.</b>	Clinical features of the human linguistic system	38
<b>Sirojova Z.N.</b>	Ingliz tilidagi qo'shma gaplarda sintaktik munosabatlar sinkretizmining funksional tadqiqi	43
<b>Subxonova M.O.</b>	Lingvomadaniy birliklarning do'stlik haqidagi ingliz va o'zbek maqollarida ifodalanishi	48
<b>Sulaymanova M.Sh.</b>	The role of national values in teaching the native language	52
<b>Xamdamova G.X.</b>	Maqollarning nominativ-semantik xususiyatlari	57
<b>Xojiyeva M.Y.</b>	Shaxs semali leksemalar valentligi va so'z birikmasi	61
<b>Yokubova Sh.Y.</b>	Poetik nutqda metaforik birikmalar	65
<b>Эпидуллаев А.Р.</b>	Эпонимларнинг мавзуй таснифи	70
<b>Наширова Ш.Б.</b>	Инглизча-ўзбекча ва ўзбекча-инглизча луғатлар учун кўп маъноли сўзларни танлаш мезонлари	75
<b>Рўзиев Я.Б.</b>	Ўзбек тилида биринчи тур ўзлаштирмалик ва гап	80
<b>Salixova N.N.</b>	Ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan undovlarning ma'no turlari	86
<b>Safarova M.Z.</b>	Etnonimiyaning o'rganilishi	90
<b>Тўраева Д.М.</b>	Пунктуацияда меъёр ва янгича аънаналарнинг пайдо бўлиши	98

LINGVOKULTUROLOGIYANING TARIXIY BOSQICHLARI VA IJTIMOYIY-MADANIY  
O'ZIGA XOSLIKLARI

*Irgasheva Feruza Baxtiyorovna*

*Buxoro davlat universiteti*

*tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasida katta o'qituvchisi*

[f.b.irgasheva@buxdu.uz](mailto:f.b.irgasheva@buxdu.uz)

*Annotsiya: Tarjima inson faoliyatining eng asosiy turlaridan biri sifatida uzoq tarixiy bosqichlarga ega. Maqolada lingvokulturemalar tadqiqotining tarixiy bosqichlari hamda ularning sotsiolingvistik aspektlari haqida nazariy fikr bildirilgan. Til, fikrlash, jamiyat tushunchalarining o'zaro aloqadorligi, ularning ijtimoiy funksiyasi, shuningdek, tilshunoslar tomonidan til, millat va madaniyat tushunchalarining tarixiy bosqichlarda ilm-fan terminologiyasidan o'rin egallashi tahlil qilingan. Tarjimaning sotsial vazifalari, tarjimani sotsial hodisa sifatida o'rganish, sotsiolingvistikaning tarkibiga kiruvchi tarjimaning muhim xususiyatlari tizimlashtirilgan.*

*Kalit so'zlar: til, madaniyat, tarjima, sotsiolingvistika, badiiy tarjima, madaniyatlararo yondashuv, fikrlash, muloqot.*

*Аннотация: Перевод, как один из самых основных видов человеческой деятельности, имеет длительные исторические этапы. В статье представлен теоретический взгляд на исторические этапы изучения лингвокультурем и их социолингвистических аспектов. Взаимосвязь понятий языка, мышления, общества, их социальная функция, а также место понятий язык, нация и культура в исторических этапах с точки зрения терминологии науки были проанализированы лингвистами. Систематизированы социальные задачи перевода, изучение перевода как социального явления, важные черты перевода, входящие в состав социолингвистики.*

*Ключевые слова: язык, культура, перевод, социолингвистика, художественный перевод, межкультурная коммуникация, мышление, коммуникация.*

*Abstract: Translation, as one of the most basic types of human activity, has long historical stages. The article presents a theoretical opinion about the historical stages of the study of linguocultures and their sociolinguistic aspects. Interrelationship of the concepts of language, thinking, society, their social function, as well as the place of the concepts of language, nation and culture in historical stages from the terminology of science were analyzed by linguists. The social tasks of translation, the study of translation as a social phenomenon, the important features of translation that are part of sociolinguistics are systematized.*

*Keywords: language, culture, translation, social linguistic, literature translation, intercultural communication, thinking, communication.*

**Kirish.** V.Gyote aytganidek, "tarjima jarayonida tarjima qilib bo'lmaydigan unsurlarga qadar yetib borish kerak bo'ladi, faqat shundagina boshqa xalq, boshqa tilni yaqindan bilib olish mumkin". Tarjima inson faoliyatining eng asosiy turlaridan biri sanaladi. Insonlarning alohida guruhlar bo'lib yashashi oqibatida ularning muloqot tillari bir-biridan farq qila boshlagan, buning natijasida turli dunyo tillari yuzaga kelgan. Turli til vakillarining o'zaro muloqotga kirishishi, tovar yoki ma'lumot almashinishi uchun tilmochlar ko'magidan foydalanilgan. Vaqt o'tishi bilan og'zaki tarjima bilan bir qatorda yozma tarjimonlik faoliyati ham rivojlana borgan. Tarjima eng boshdanoq muhim ijtimoiy funksiyani bajarib, insonlarda madaniyatlararo muloqot qilish imkonini bergan. [5]

L.K.Latishvning fikriga ko'ra, tarjimaning sotsial maqsadlari uning mavjud barcha amalga oshirish mumkin bo'lgan xususiyatlarini doimiy tasniflovchisidir. Uning izlanishlariga ko'ra, bunday sotsial maqsadni namoyon etish, tarjimani boshqa til vositachiliklari bilan solishtirishdan yiroqlashgan holda, uning jamiyat maqsadini aniqlovchi mohiyatini tasvirlash zarur. L.K.Latishvning ta'kidlashicha, bunday qiyoslash tarjima – tillarda aloqa qilishning yagona yo'li bo'lib, uning maqsadi turli lingvomadaniy to'siqlarni bartaraf etish orqali muloqot qilish imkonini beradi.

**Asosiy qism.** Tarjimaning sotsial aspektlari u yoki bu shaklda tarjima bo'yicha qilingan nazariy izlanishlarida yoritilgan. A. Lilovanning ta'kidlashicha, tarjimaning sotsial vazifalari – turli xalqlarning kitoblarida saqlangan, shuningdek, umumxalq mulkiga aylangan, til to'sig'i tufayli ko'pchilik uchun erishib

bo'lmaydigan vazifalardir. Tarjima insonlar va xalqlarni birlashtirib, ularning o'zaro aloqa qilishlari uchun ko'makchi hisoblanadi.

Tarjimaning sotsial vazifalarini aniqlashda, A.Lilova ularni quyidagicha tizimlashtiradi:

- kommunikativ vazifa;
- umummadaniy vazifa;
- kognitiv-tarbiyaviy vazifa.

Tarjmani sotsial hodisa sifatida o'rganish sotsiolingvistikaning tarkibiga kiruvchi tarjimaning muhim xususiyatlarini aniqlamasdan turib inkonsizdir. A.D.Shveysar ta'kidlaganidek, tarjima nazariyasi uchun sotsiolingvistik nuqtai nazardan qaraganda shu narsa muhimki, til sotsial-madaniy hodisa sifatida qaraladi va tilda ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lgan turli ko'rinishdagi variativlik mavjud. [4]

Madaniyat tushunchasi o'zida tilni mujassamlashtirishi ma'lumligi sabab tilning lug'at tarkibi ijtimoiy-madaniy tushunchalarini o'rganish ahamiyatlidir. Har qanday tarjimon, hatto eng mohir tarjimon ham tarjima qiyinchiliklariga duch keladi, chunki u zaxiradagi boshqa bilimlari yordamida matnni o'zga madaniyat doirasiga olib kirishi kerak. Bunda tarjimon original uslubni qayta yaratishi va milliy stilistik uslubni yo'qotmasligi lozim. Madaniyatlararo muloqot jarayonining yagona vakili sifatida, tarjimon o'zining gnoseologik davomligida original fikrlash modelini yaratadi, uning adekvatligi ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi:

- tarjimonning ma'lumotga egalik darajasi;
- original matn muallifi va tarjimon orasidagi masofa;
- tarjimonning fikrlash xarakteri. M.Rilskiy aytganidek, har qanday mohir tarjimada nafaqat millat alomati, balki individuallik alomati ham namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy o'ziga xos unsurlar tarjimasini muammolarining ahamiyati va dolzarbligining ahamiyati tarjima nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullangan L.I.Borisova, V.D.Ivshin, I.G.Jirova, L.K.Latishov, V.N.Komissarov, L.L.Nelyubin, G.T.Xuxuni, A.M.shveysar kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Ushbu muammoning qo'yilishi zamonaviy davrda tarjima sifatini baholashning yuqori mezonlariga asoslanib, tarjimonning kasbiy kompetensiyasini shakllantiruvchi bilimlar va mahoratni egallashni nazarda tutadi. Tarjimonlik kompetensiyasining asosini chet tilini egallash tashkil etadi, chunki chet tilini bilmay turib mazkur sohada faoliyat olib borish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Tarjimonning kasbiy mahoratining muhim mezonlaridan yana biri uning yuqori darajadagi lingvomadaniyati, ya'ni madaniy va o'lkashunoslik bilimlari sanaladi. Ammo shu narsani ta'kidlab o'tish joizki, tajribali va bilimdon professional ham o'zida dunyo haqidagi barcha bilimlarni mujassamlashtira olmaydi, bundan tashqari, bir tildan boshqa tilga aniq ijtimoiy-madaniy komponentni yetkazib berish jarayonida tarjimon xato va g'alizliklardan qochish maqsadida ma'lumotlar katoligi va lug'atlardan foydalanadi. Shunday qilib, nafaqat milliy til va o'zga til madaniyati haqidagi yuqori bilimlar, balki madaniyatlararo va tillararo muloqotda tamoyil va yondashuvni ham egallash muhim sanaladi.[1]

Badiiy adabiyot muallif tomonidan berilgan ma'lumot asosida, uning dunyoqarashidan kelib chiqib o'quvchilarga yetkazilgan hisoblanadi. Ya'ni asar muallifi dunyo tasvirini qanday anglashini o'z asarida mujassamlashtirgan holda keng omma ongiga taqdim etadi.

Janr va adabiy yo'nalishiga qarab vaqt va makonda aniqlangan real yoki uydirma haqiqatga taqlid qilib, unda o'quvchilar tomonidan real qabul qilinadigan personajlar ishtiroki bilan rivojlanadigan voqealar mavjud. Yozuvchi mahorati o'quvchini nafaqat uydirmaning real hodisa ekanligiga ishonirish, balki uni muallif tomoniga og'dirish, ya'ni dunyo va ijtimoiy qiymatga ega jamiyat muammolarini yozuvchi tomonidan asoslanishi va to'g'riligiga ishonirishga majbur qiladi. Badiiy matnning sotsiomadaniy tarkibi o'zida personajlar yashaydigan va faoliyat yuritadigan dunyoni aks ettirib, ularning barchasiga muallif egalik qiladi.

Bu badiiy tarjimaning boshqa tilga nafaqat muallif o'y-fikri va matn mazmunini yetkazib berish bo'lgan ahamiyatli jihatini ko'rsatadi, balki badiiy asar tarkibini tashkil etuvchi uydirmalarning sotsiomadaniy elementlarining tarjimasini muhimligini namoyon etadi.[6] Madaniyatlararo yondashuvning o'zlashtirilishi ham ushbu vazifalarni bajarishda ko'makchi bo'lishi mumkin. Tarjimashunoslikda lingvokulturologik yondashuvning o'rnini aniqlash uchun uning taraqqiyot bosqichlarini ko'rib chiqish kerak.

1. Lingvokulturologiya tarixida ilmiy yo'nalish sifatida V. fon Gumboldtning ilmiy ishlari orqali ilm-fanning shakllanishi, shuningdek uning ilmiy izdoshlari bo'lgan L.Vaysberger, E.Sepir, V.I.Vernadskiy kabilar ham ilk bosqich namoyondalari sifatida keltiriladi. Til, madaniyat, millatlar aloqadorligi muammolari XIX asr tadqiqotchilari qiziqishlarini doirasida bo'lgan.[2]

Til va madaniyatning o'zaro aloqadorligi borasidagi falsafiy tushunchalar V. fon Gumboldtning milliy tilshunoslik nazariyasida va ko'plab Yevropa lingvistik an'alarida o'z ifodasini topgan. Muallif gumanitar fanlarga doir fundamental masalalarga nisbatan qarashlarini o'zining butun ijodiy biografiyasini qamrab olgan xronologik ishlarida bayon qilgan. So'z va fikrlashning o'zaro aloqadorligi haqida so'z yuritar ekan, muallif, tilni nafaqat anglangan haqiqat vositasi sifatida emas, balki undan ham ortiqroq – yangi, anglanmagan olamning ochilishi deb tushunadi. Olib borilgan izlanishlari natijasida u shunday fikrga keladi: til – inson fikr-o'ylarini shakllantiruvchi organ, inson faqatgina tilde o'ylaydi, his qiladi va yashaydi hamda sun'iy til orqali mavjud emaslikni til orqali anglashi avval boshdanoq u, ya'ni inson tomonidan shakllantirilishi kerak.

Keyingi izlanishlarida V. Fon Gumboldt tillarni o'rganishni ularning o'z shakllanish qatori tizimida qo'llanilishi kerak degan fikrga keladi. Tillarni chog'ishtirishni milliy o'ziga xosliklarni tadqiq qilish metodlarini o'rganish sifatida qaraydi: insonning gapirish qobiliyati va ehtiyoji butun millat tomonidan yaratilgan. Til konkret bir insonning erkin mahsuli bo'la olmaydi, u butun millatga tegishli va cheklangan individuallikdan butun qamrovli mavjudlikning o'zgaruvchan vositasi hisoblanadi. Har bir konkret millat madaniyati shu millat individlarida bosqichma-bosqich shakllanib borishiga asoslanadi. Turli xil yosh, jins vakillari orasida til aynan o'sha millatning turli xarakter va intellektlarida aralashadi, tozalanadi va qayta shakllanadi. Bu jarayon millatlararo xarakterga ega bo'lib, so'z va tillar, tor doiradagi muloqot vakillari doirasida butun insoniyatni qamrab oladi. Barcha tillarning bu tarzda diqqatga molikligi shu bilan izohlanadiki, barcha tillar grammatika va leksikasida barcha til sharoitlaridan ayro tarzda olingan predmetlarning salmoqli miqdori mavjud. Har bir til jamoasi gnoseologik o'ziga xosligi bilan shartlangan g'oyasiga alohida olingan har bir til tushunchalari qurilishi o'ziga xoslik idioetnizm g'oyasiga qarshilik qilmasligi isbotlanmagan. V. Fon Gumboldtning qarashlarida tilning shakllanishi faqatgina jamiyat ichida muloqotni tutib turishga intilish sifatida emas, balki insoniyatning tabiatiga o'rmashib qolgan, ulardagi ruhiy kuchning rivojlanishi va dunyoqarashining shakllanishida almashtirib bo'lmaydigan ehtiyoj deya ta'kidlanadi. [3]

2. Keyingi bosqichni postgumboldtizm deya atash mumkin. V. fon Gumboldt tomonidan aytilgan ko'plab fikrlar tanqidiy bahoga yuz tutdi, qayta ishlandi va aksincha uning izdoshlari tadqiqotlari natijasida keyingi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilib neogumboldtchilar sifatida inson verballashtiradigan til va fikrlash, til va mavjudlik o'zaro aloqadorligini o'rganadi.

Nemis lingvisti K.Abel idioetniklikning gumboldtcha g'oyasiga sharh keltirib, tillarni bir-biri bilan qiyoslashni begona o'lkalarga sayohat qilishga o'xshatib, biz ko'rib turgan narsalar, binolar arxitekturasi to'kiyim-kechak bichimiga, rasmiy marosim nutqidan to'qiziqarli hazillargacha, ammo milliy o'zgarigan ko'rinishda va qayta shakllangan. Millatlar orasida munosib o'rin egallash uchun o'sha tilning o'ziga dunyo fikrlash bo'yicha tadqiqotlariga kafolatlay oladi. X.G. von der Gobelensning qarashlarida tilning milliy o'ziga xosliklari birinchi o'ringa qo'yilgan bo'lib, uning fikricha, biz o'rganadigan har bir til bizga yangi dunyoni emas, o'sha biz ko'rib turgan dunyo haqida, ammo biz unga boshqacha nigoh bilan nazar solamiz, uni boshqa doirada ko'ramiz. Shuning uchun biz shu paytgacha e'tibor bermagan narsalarimiz ko'zimizga tashlanadi va biz ko'nikib qolgan elementlar nigohimizdan chetda qoladi, predmetlar oldingiga nisbatan boshqa qonuniyatlar, boshqa munosabatlar va vositalar orqali bog'langandek tuyuladi. Shu sababli dunyo ham biz uchun boshqachadek ko'rinadi. Millatning ruhiy g'oyalari F.N.Finka konsepsiyasida namoyon etilgan bo'lib, unda millatning ruhiy o'ziga xosligi o'zining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan dunyoqarashni ham o'zida mujassamlashtiradi. Muallifning xulosasiga ko'ra, tilning ruhiy o'ziga xosligi va ichki shakli, ya'ni til qurilishi, orasida o'zaro aloqadorlik mavjud, til bo'yicha asoslar esa millat tilining psixologik o'ziga xosligi va uning grammatik qurilishi borasida bahs yuritadi. [7]

Inson va mavjudlik orasidagi vositachi sifatida til haqidagi V. fon Gumboldtning g'oyalariga ko'ra insonning obyektiv borliqqa munosabati va o'zini tutishi E.Sepir va B.Uorflarning etnolingvistik konsepsiyasi asosini tashkil etib, unga ko'ra til unga egalik qiluvchining fikrlashini shartlantiradi, o'rab turgan borliqni anglash fikrlash amalga oshgan tilga uzviy bog'liqligini namoyon etish vositasidir. Turli tillarda so'zlashuvchi va turlicha madaniyatga aloqador odamlar dunyoni har xil qabul qiladilar, til esa mavjud muhrlangan borliq haqidagi tushunchalar oqimini tartibga soladi. Biz tabiatni tilimiz vositasida taklif etilgan yo'nalish bo'yicha qismlarga ajratamiz. Biz dunyodagi mavjud narsalarni ularning turlicha ekanligi aniqligidan u yoki bu kategoriyalarga ajratmaymiz, balki aksincha, bizning ongimizda tashkil etilgan, bu deganiki, bizning ongimizda saqlangan til tizimi orqali, taassurotlarning koleydoskopik oqimi sifatida namoyon bo'ladi.

Y.L.Vaysberger gumboldtcha lingvofalsafiy tadqiqotlarning davomchilaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Ilmiy terminologiyaga "dunyoning lisoniy tasviri" tushunchasi aynan u tomonidan kiritilgan, ammo uning fikricha, bu tushuncha uning ustozlari izlanishlari natijasidir. Ushbu tushunchaning nazariy asoslari bizni

o'rab turgan olamni til vositasida verballashtirish holati bo'lib, u olamni g'oyaga aylantiradi, tilning ichki shakli tushunchasini va shu ichki shakl orqali boshqa til olamiga sho'ng'ishni anglatadi. Har bir til o'zining mazmun doirasida o'z dunyo lisoniy tasviriga ega. Konkret til dunyosining lisoniy tasviri bu uning umummadaniy mulkidir. Y.L.Vaysbergerning tadqiqotlariga ko'ra, dunyoning lisoniy birligi – ushbu til jamoasi tarixiy ongida shakllangan va dunyo haqida tushunchalar umumiyligi, mavjudlikning konseptualizatsiyasi aniq usulidir. Konkret tilning dunyo lisoniy tasviri uning qayta shakllantiruvchi kuchi bo'lib, til mansub shaxsga til orqali “oraliq dunyo” sifatida o'rab turgan olam haqidagi tasavvurdir. Dunyoning lisoniy tasviri til jamiyatining bir turkumda o'ziga xos o'z-o'zini anglash mavjud bo'lib, til vositalari muhrlanishi vositasida keyingi avlodga dunyoqarash, xulq-atvor normasi, hayot tarzi orqali o'tib boradi.

3. Lingvokulturologiyaning zamonaviy bosqichi fundamental ilm-fan sifatida shakllanishi va uning yutuqlari hamda natijalaridan gumanitar yo'nalishlarda qo'llanilish imkoniyati bilan xarakterlanadi. Madaniyatni til orqali o'rganish yuqorida keltirilgan tarixiy bosqichlarga ko'ra bu g'oya yangi emasligini ko'rish mumkin. Shu sohadagi tadqiqotlardan olingan natijalarga ko'ra XX asr oxirida lingvistikada quyidagi holatni qabul qilish mumkin bo'ldi, ya'ni, til madaniyat bilan faqatgina bog'liq emas, u uning orqali shakllanadi va uning yordamida ifodalaydi. Til madaniyatni hosil qilish, rivojlantirish, saqlash qurolining bir qismi, chunki til yordamida moddiy va ma'naviy madaniyatning obyektiv mavjud namunalari hosil bo'ladi. Shu asosda ilmiy o'nalish – lingvokulturologiya paydo bo'lib, u lingvistika va madaniyatshunoslikning mexanik bog'liqligi emas, balki yangi ilmiy tushunchalarni shakllantiradigan va dalillarni isbotlay oladigan mustaqil fanlararo fandır. [8]

**Xulosa.** Xalqlarning bir-birini o'zaro anglashi uchun lingvistik tadqiqotlarning zaruriyati, milliy madaniyat muloqoti umumiy qabul qilingan dalil bo'lib, E.Sepirning fikriga ko'ra, til ijtimoiy mavjudlik doirasida madaniyatni ilmiy o'rganishda yo'l boshchi sifatida borgan sari katta uning ahamiyati orta boradi. Til milliy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega. Shunga ko'ra, til, madaniyat va shaxs muammosi asosiy o'rinda qo'yish kerak, chunki aynan madaniyat orqali insonlarning ma'naviy muloqoti, xalqlarning bir-birini tushunishi va hamkorligi boshlanadi, madaniyatlar muloqoti esa shaxslarning muloqotida yangilanib boradi.

### ADABIYOTLAR:

1. Bernstein, B. *Elaborierter und restringierter Kode: Eine Skizze/ Aspekte der Soziolinguistik.* - Frankfurt am Main.: 1971.
2. Wilhelm von Humboldt. *Uber die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues und ihren Einfluss auf die geistige Entwicklung des Menschengeschlechts.* F. Dümmler. 1968.
3. Wilhelm von Humboldt: *Werke in fünf Bänden.* Herausgegeben von Andreas Flitner und Klaus Giel, Darmstadt: Wissenschaftliche Buchgemeinschaft, 1963.
4. Швейцер, А. Д. Социолингвистика / А. Д. Швейцер. - Электрон. текст. дан. - Режим доступа: <http://www.philology.ru/linguistics1/shveytser-90.htm>.
5. Irgasheva Feruza Bakhtiyorovna. (2021). INTEGRATION OF LANGUAGE AND CULTURE INTO THE TRANSLATION PROCESS. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(1), 32-34.
6. Baxtiyorovna, I. F. (2022). Sources of Linguocultures and Linguoculturological Field. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(6), 56-60. Retrieved from <https://cajlp.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/379>
7. Bakhtiyorovna, I. F. . (2021). Translation of linguocultural peculiarities in hafiza kochkarova's translations. *Middle European Scientific Bulletin*, 12, 247-249.
8. Irgasheva, F. (2022). Представление лингвокультур в переводе и их структурных компонентов (на примере немецкого и узбекского языков). *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 8(8). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/4070](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4070)